

**KO'P MA'NOLI LEKSEMALAR VA ULARNI SEMIK TAHLIL
QILISH**

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası

*p.f.n., dots **Shaxista Buranova Menglibayevna***

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası

*assistenti **Kurbanbayev Otabek Xakimbek o'g'li***

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar

fakulteti 2 – kurs talabasi

Sidiqov O'lmas Shermat o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'p ma'noli leksemalar (polisemik birliklar) va ularning semik (ma'no tarkibiy qismlari) tahlili o'rganiladi. Ko'p ma'nolilik tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarining kengligini ko'rsatadi. Ishda leksemalarning asosiy va ikkilamchi ma'nolari, ularning nutqdagi vazifalari, kontekstga qarab yuzaga keladigan ma'no farqlari tahlil qilinadi. Har bir ma'noni ifodalovchi semalarning tahlili orqali leksemaning umumiy ma'no tuzilmasi yoritiladi. Misollar orqali ayrim so'zlarning ko'p ma'nolilik darajasi, ularning semik tarkibi va bu tarkib orqali yuzaga kelgan ma'no farqlari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Termin, polisemiya, omonim, leksema

Аннотация: В статье изучаются полисемичные лексемы (полисемичные единицы) и их семитский (значимые компоненты) анализ. Полисемия демонстрирует богатство языка и широту его выразительных возможностей. В работе анализируются первичные и вторичные значения лексем, их функции в речи, а также различия в значении, возникающие в зависимости от контекста. Общая семантическая структура лексемы выявляется посредством анализа сем, представляющих каждое значение. На примерах подробно анализируется степень многозначности некоторых слов, их семантический состав, а также различия в значении, обусловленные этим составом.



Ключевые слова: термин, полисемия, омоним, лексема

Annotatsion: *This article studies the analysis of polysemic lexemes (polysemic units) and their semitic (meaning components). Polysemic indicates the richness of language and the breadth of expressive possibilities. The work analyzes the primary and secondary meanings of lexemes, their functions in speech, and the differences in meaning that arise depending on the context. The analysis of the semes that express each meaning sheds light on the general meaning structure of the lexeme. Through examples, the degree of polysemic of some words, their semitic composition, and the differences in meaning that arise through this composition are analyzed in depth.*

Key words: term, polysemy, homonym, lexeme

Har bir tilda, jumladan, o'zbek tilida ham ko'p so'zlar bir necha ma'noni bildiradi. Shuningdek, tilda faqat bitta ma'noda qo'llaniladigan so'zlar ham mavjud. Faqat bir tushuncha yoki tasavvurni ifodalab, bitta ma'noni anglatuvchi so'zlar bir ma'noli so'zlar yoki monosemiya deb ataladi. Masalan: shahar, qishloq, urg'u, ravish, qosh, kesim, izohlovchi, roman, uxlamoq, gapirmoq, traktor, radio kabi so'zlar bir ma'noli so'zlarga (monosemiya)kiradi. Odatda, fan, texnika va turli hunar sohalaridagi terminlar shu bir ma'noli so'zlar asosida yaratiladi. Ikki yoki undan ortiq tushuncha yoki tasavvurni ifodalab, bir necha ma'noni bildiruvchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deb ataladi. O'zbek tilida bosh, ko'z, yuz, til, qo'l, bel, qalam, yo'l, yer, ko'k, qosh, tosh, tish, lab, kecha, uchrashuv, to'garak kabi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar jumlasidandir. Masalan, ko'z so'zining bir necha ma'nosini ko'rib chiqamiz: 1. Bobomning ko'zi hali yaxshi ko'radi. (Ko'z – ko'rish organi ma'nosida.) 2. To'g'onning ko'zi, yaraning ko'zi, ignaning ko'zi. (Ko'z – teshik ma'nosida.)3. Uzukning ko'zi. (Uzukka taqilgan yo zumrad tosh ma'nosida.) 4. Derazaning ko'zi. (Derazaning oyna qo'yiladigan o'rni ma'nosida.) 5. Taxtaning ko'zi. (Taxtaning o'rtasidagi yoki biron chetidagi doira yoki boshqa shaklda ajralib turgan qismi ma'nosida.) Ko'p ma'noli so'zlardan biri bo'lgan ko'z so'zi bulardan tashqari yana boshqa ma'no nozikliklarini bildirishi va ko'chma ma'nolarda qo'llanishi ham mumkin. Masalan, bizning kunlarda ishning ko'zini bilib rahbarlik qilish kerak. (Bu



o'rinda "ko'z" so'zi ishning yo'lini, sirini, olib borish usulini bilish ma'nosida.) Endi bildim. Ko'zim ochildi. (Bu yerda "ko'z" – biror masalani keyinchalik bilib olish, tushunish ma'nosida.) Ko'z oldida o'g'il-qizlari, nevarasi, ko'zi qorasi. ("Ko'z oldida" – o'zi bilan birga, "ko'z qorasi" – farzandi yoki nevarasi ma'nolarida.) U bu ishda ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lib yurdi. (Hech narsani bilmaslik yoki bilmaslikka solish ma'nosida.) Ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolarni anglatishini yoki ularning xilma-xil ma'no nozikliklarini kontekst orqali aniqlash mumkin. So'zlardagi ko'p ma'nolilik hamda so'z ma'nolarining nozik ottentaklari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida, ayniqsa, keng qo'llanadi. So'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolari. So'z ma'lum predmet yoki voqea-hodisa haqidagi tushunchani ifodalab, real (leksik) ma'noni anglatishi bilan birga, ayni vaqtda boshqa kontekstda boshqa xil ma'nolarni ham bildirishi mumkin. Masalan: Singlim, ko'zguni olib keling, degan misolda ko'zgu so'zi o'zining dastlabki, real (leksik) ma'nosida, ya'ni oyna haqidagi tushunchani ifodalayapti. "Ilm o'rganish – hayotimiz ko'zgusi") Bu gapda ko'zgu so'zi o'zining to'g'ri ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llangan.¹ Yoki bahor so'zini olaylik. Bahor so'zi yil fasllaridan biri degan tushunchani ifodalashi bilan birga, badiiy adabiyotda, ayniqsa, poeziyada, ko'plab ko'chma ma'nolarda ham qo'llanadi. So'zning leksik ma'nosi so'zning to'g'ri ma'nosi sanaladi. Masalan, quyosh yulduz – sayyoradir. Bu ma'nolar quyosh, yulduz, xazina so'zlarining leksik, ya'ni to'g'ri ma'nolaridir. Insonlar ishlab chiqarish jarayonida, turmush va boshqa sohalardagi tajribalariga tayanib, so'zlarni o'xshatish, kinoya, mubolag'a, sifatlash va boshqa usullar orqali xilma-xil ko'chma ma'nolarda ishlatadilar. Demak, so'zning real, leksik, to'g'ri ma'nosidan tashqari, o'xshatish, mubolag'a yoki kinoya kabi usullar bilan boshqa ma'nolarda qo'llanilishi so'zning ko'chma ma'nosi deyiladi. Yuqorida to'g'ri ma'noda qo'llangan quyosh, yulduz, xazina so'zlarining quyida ko'chma ma'nolarda ishlatilganini ko'rib chiqaylik: 1. Bu – Sharqning yulduzi – O'zbekiston. 2. Nur sochar respublikamning ko'ksida ikki quyosh. Birinchi misrada yulduz – O'zbekistonni, ikkinchi misrada esa quyosh – ordenni anglatib kelgan. Albatta, yuqorida misol

¹ Safarov SH. Semantika.– Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2013.



sifatida keltirilgan soʻzlar boshqa kontekstlarda yana turlicha koʻchma maʼnolarda ham qoʻllanishi mumkin. Masalan, “quyosh” soʻzini toʻgʻri maʼnosida ishlatishdan tashqari, yana bir necha koʻchma maʼnolarda (masalan, tinchlik-omonlik, elektr kuchi va nuri, talantlar, mashhur shaxslar va boshqa maʼnolarda) qoʻllagan. Birdan ortiq maʼno anglatish hodisasiga koʻpmaʼnolilik deyiladi. Bunday xususiyat til birligi sifatida leksemaga ham xosdir. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi leksemalarning deyarli yarmi bir maʼnoli hisoblanadi. Yangi yaratilgan yoki oʻzlashtirilgan leksema boshlangʻich ishlatilish davrida odatda bir maʼnoli boʻladi. U biror voqelikning nomi sifatida yuzaga keladi va keyinchalik mazmun jihatidan turli-tuman oʻzgarishlarga uchraydi. Ana shunday oʻzgarishlar natijasida bir maʼnoli leksema yangi leksik maʼno kashf etib, koʻp maʼnoli leksemaga aylanishi mumkin. Terminlar odatda bir maʼnoli boʻladi (bu haqda Termin izohlangan sahifalarda batafsil maʼlumot berilgan). Eng tor kontekstli leksemalar ham odatda bir maʼnoli boʻlib, faqat bir maʼno yoʻnalishidagi leksemalar bilan (baʼzan faqat bitta leksema bilan) bogʻlanib keladi. Bunday leksemalar bogʻlanishdan tashqarida mustaqil ishlatilmasligi ham mumkin. Masalan, taka leksemasi juda tor kontekstli va bir maʼnoli: oʻtakasi yorildi iborasi tarkibida ishlatilib, jigardan ajralib chiqadigan sargʻish-yashil rangli achchiq suyuqlik toʻplanadigan pufakcha maʼnosini anglatadi. Leksemaning maʼnoliligi asli kontekstda shakllanadi va namoyon boʻladi. Kontekst qanchalik rang-barang boʻlsa, bu leksemaning maʼnoliligi shunchalik boy boʻladi. Bunda shu leksema bilan bogʻlanib keladigan leksemalarning miqdori emas, balki turli-tuman semantik yoʻnalishdagi leksemalar boʻlishi muhim. Leksik koʻpmaʼnolilik – koʻp qirrali va murakkab hodisa. Buning ustiga, deyarli har bir leksemaning leksik maʼno taraqqiyoti alohida yondashuvni va izohni talab qiladi. Shu sababli, leksemalarning leksik maʼnolarini aniqlash va tartiblash juda qiyin jarayon sanaladi. Adabiyotlarda leksemalarning koʻp maʼnoliligi haqida bildiriladigan fikrlar koʻpincha mavhum boʻlib, leksik maʼno taraqqiyoti haqida umumiy tasavvur hosil etishga xizmat qiladi. Soʻzlarning koʻp maʼnoliligi masalasi maʼlumki, yangi maʼnolarning paydo boʻlishi va soʻzlarning boyib borishi koʻpincha til taraqqiyotida tabiiy bir jarayon sifatida namoyon boʻladi. Til hodisalari ustidagi kuzatishlarimiz soʻzlarning yangi maʼno bilan boyishi til taraqqiyotida katta oʻrin tutuvchi muhim



xususiyat ekanligini ochib beradi. Chunki soʻzga yangi maʼno yuklanishi tilda yangidan paydo boʻlgan mustaqil soʻz kabi lisoniy boylikka katta hissa qoʻshadi va til leksikasini rivojlantirishda muhim xizmat qiladi. Masalan, bir leksik birlik maʼnosining oʻzgarishi, yangi maʼnoda ishlatilishi, undan foydalanish doirasining kengayishi, uning passivlanishi yoki aktivlanishi, boshqa soʻzlarga taʼsir qilishi natijasida yangi soʻzlar paydo boʻladi. Bu jihatdan soʻz maʼnosini tarixiy asosda oʻrganish yangi soʻzlarning yuzaga kelishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, “yuz” leksik birligini semantik tahlil qiladigan boʻlsak, hozirgi oʻzbek tilida bir nechta maʼnolarda ishlatiladi: 1.Maʼlum son. 2.Odamning basharasi yoki biror narsaning ustki tomoni (masalan, qogʻoz yuzi, kitob yuzi, yer yuzi). 3.Or-nomus. Bu soʻz oʻzining har bir maʼnosiga mos ravishda tilning turli soʻzlari sifatida ishlatiladi. Masalan: Birinchi maʼno asosida: “yuzlab”, “yuzmadan”, “yuzlarcha”, “yuzinchi”, “yuz-yuz”. Ikkinchi maʼno asosida: yuz, yuzlashmoq, yuzlashtirmoq. Demak, soʻzlarda mavjud boʻlgan har bir maʼno tilda mustaqil soʻzlar sonini oshirishga xizmat qiluvchi katta jarayonni tashkil etadi. Koʻp maʼnolilik xalqning jonli tiliga ham chuqur singib ketgan hodisadir. Bu usul bilan xalq tilida yangi soʻzlar osonlik bilan yaratiladi. Masalan, “polvon” soʻzi ilgari kuchli va bahodir jangchilarga nisbatan ishlatilgan boʻlsa, hozirgi vaqtlarda bu soʻz ekskavator mashinasini atash uchun ishlatilmoqda. Bu atama til qonunlariga mos ravishda tilga singib bormoqda. Shu bilan birga, leksik birliklardagi har bir maʼno xususiyati bir xil emas: baʼzi maʼnolar aktiv, baʼzilar esa passiv boʻlishi mumkin. Bu holat yangi maʼnoning turmushdagi roli, oʻsha soʻzning tilda tutgan pozitsiyasi va uning ichki imkoniyatlariga bogʻliq. Yangi maʼnoning paydo boʻlish usuli, soʻzga singish xususiyati va maʼno koʻpligi jihatidan har xil boʻlishi mumkin. Baʼzi soʻzlarda koʻpmaʼnolilik doimiy boʻlib, soʻz qayerda ishlatilmasin, uning maʼnolari odam xotirasida aks etadi. Ammo matn orqali odam maʼnoni toʻliq anglash imkoniyatiga ega boʻladi. Masalan, “yoz” soʻzini eshitgan odamning xotirasida quyidagi maʼnolar paydo boʻladi: 1. Yozmoq (yozuv bajarish). 2. Yoymoq (narsani yoyish, tarqatish). 3. Maʼlum yil fasli (bahordan keyingi fasl). Shunday holatlar boʻladiki, baʼzan matn orqali ham maʼnolarni ajratish qiyin boʻladi. Baʼzi yozuvchilar bu xususiyatdan ataylab foydalanib, soʻz oʻyinlari yaratadilar. Masalan,



“furqat” soʻzining ikki maʼnosi mavjud: 1. Shoirning taxallusi. 2. Vatandan uzoqlik. Bu ikki maʼno ataylab qoʻllanilganda, ularni ajratib boʻlmaydi. Bunday hodisa klassik adabiyotda tez-tez uchraydi va “lutf” deb ataladi. Soʻzlarni lobnor lugʻat xususiyatlariga koʻra dastlab ikki guruhga ajratish mumkin: 1. Doimiy koʻp maʼnolilikka ega soʻzlar. 2. Vaqtli koʻp maʼnolilikka ega soʻzlar. Har doim koʻp maʼnolilik aniq koʻrinib turgan soʻzlar omonim va polisemiya soʻzlar deb ataladi hamda ular maxsus boʻlimlarda oʻrganiladi.²

Polisemiya va omonim soʻzlar tarixiy xususiyatlarga ega boʻlib, shakl va funksiyalar jihatidan bir xil boʻlsa-da, maʼnolarining yuzaga kelish sabablari bilan bir-biridan farq qiladi. Shakli bir, mazmuni turli boʻlgan soʻzlar tilshunoslikda omonim soʻzlar deb yuritiladi. Masalan, “ot” soʻzi predmetlarning umumiy ismi boʻlib, miniladigan hayvon (ot) va feʼl maʼnolarini anglatadi. “Oʻng” soʻzidan esa oson, taraf, old kabi maʼnolar tushuniladi. Bu yerda “ot” soʻzidan kelib chiqadigan maʼnolar bir-biridan katta farq qiladi, “oʻng” soʻzining maʼnolari esa bir-biriga juda yaqin. Shuning uchun mazmunan farqli va uzoq boʻlgan soʻzlar omonimlar, maʼnolari bir-biriga yaqin va bogʻliq boʻlgan soʻzlar esa polisemiya soʻzlar deb ataladi. Demak, omonim soʻzlar bir necha mustaqil soʻzlarning alohida sharoit natijasida birlashishidan iborat boʻlsa, polisemiya soʻzlar bir soʻzning til taraqqiyoti qonunlariga muvofiq yangi maʼno va atamalar bilan boyishining natijasidir. Bunday soʻzlarni oʻrganish soʻz boyligini oshirish, uslub madaniyatini puxta egallash va boshqa tillarni, asosli ravishda oʻrganish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mahmud Koshgʻariy “Devoni lugʻat ut-turk” asarida “oʻt” soʻzining simlik, quruq xashak, davo va zahar singari toʻrt xil maʼnoda ishlatilganini qayd etgan. Hozirgi “ut” soʻzi esa “utmok” feʼlining ildizi sifatida yangi maʼno bilan boyigan. Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, olov maʼnosidagi “oʻt” soʻzi tamoman boshqacha boʻlgan. Mahmud Koshgʻariy bu soʻzning asl shaklini “urt” deb koʻrsatadi. Navoiy asarlarida esa bu soʻz “urt” va “ot” shakllarida ham ishlatilgan. Soʻz maʼnosidagi bu rang-barang xususiyatlar va uning yuzaga kelish usullari har doim ham bu misollarda keltirilganidek aniq va tushunarli boʻlavermaydi. Aksincha, koʻplab

² Shoabdurahmonov SH, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980.



abstrakt soʻzlarning avvalgi konkret formalarini aniqlash ancha qiyin. Hatto, bir necha marta maʼno oʻzgarishiga uchrab, dastlabki maʼnosi butunlay yoʻqolgan soʻzlar ham mavjud. Bu holat soʻz etimologiyasini, soʻzlarning dastlabki formalarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Lekin lingvist har qanday soʻzning mohiyatini tarixiy asosda oʻrganish orqali aniqlay oladi. Tilshunos bu jarayonni chuqur oʻrganish bilan birga, tilshunoslarining “soʻzlar maʼnosi til tabiatiga va xalqning aqliga bogʻliq” degan tarixiy voqelikka zid boʻlgan notoʻgʻri qarashlarini fosh qilishi zarur. Qadimiy yozma yodgorliklarning soʻz maʼnolari ustidagi kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, soʻz maʼnosi oʻzgaruvchan hodisa boʻlib, uning kengayishi, torayishi yoki ozayishi, avvalgi maʼnoning saqlanib qolishi yoki unutilishi mumkin. Ayrim soʻzlarning maʼnosi qayta-qayta oʻzgarishi ham kuzatiladi. Demak, soʻz maʼnosi tildagi eng katta va eng muhim masalalardan biridir. Bir tomondan, soʻzning kelib chiqish mohiyatini toʻgʻri aniqlash zarur.³ Shuning uchun ham har bir leksik birlikni maʼnolarini oʻrganib chiqish va uning tasnifini bilib olish muhim ahamiyatga egadir. Leksik birliklarni maʼnolarini oʻrganish orqali soʻz boyligi oshishga va nutqimizni chiroyli va ravon ifodalash uchun katta yordam beradi. Albatta har bir inson nutqi, oʻzining ifodali tili orqali ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent : Universitet, 2006.
2. Safarov Sh. Semantika.– Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2013.
3. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980.

³ Mutalliboyev S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent : Oʻzbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti , 1909.